

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

ISTE'DODNING IJODIY BAHOSI

Nafisa Karimova

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti*

***Annotatsiya:** maqolada iste'dod va ijodga doir masalalar atroflicha o'rganilgan. Mazkur tushunchalarga nazariy va amaliy baho berilgan. Abdulla Oripov va Erkin Vohidov qarashlari orqali firklar dalillangan. Iste'dodni rivojlantirish masalasi ham alohida ko'rilgan. Manbalardan o'rinli foydalanilgan.*

***Kalit so'zlar:** iste'dod, ijod, muallif, yosh, xarakter, badiiyat, mahorat.*

***Abstract:** the article deals with issues of talent and creativity. A theoretical and practical assessment was given to these concepts. Differences were proved through the views of Abdulla Oripov and Erkin Vahidov. The issue of talent development was also considered separately. Appropriate use of resources.*

***Key words:** talent, creativity, author, age, character, artistry, skill.*

Iste'dod masalasini turli yondasguvlar asosida baholash mumkin. Iste'dod masalasi bilan turf axil sohalarda yuzlashish mumkin. Uning ahamiyati badiiy ijodda ko'proq ahamiyat kasb etadi, chunki iste'dod badiiy ijodning boshlang'ich bog'inidir. Ijod avvalo, aqliy faoliyatning bir turi hisoblanadi. Ijodiy ishda tartib bo'ladimi? degan tabiiy savol tug'ilishi mumkin. Ijodxonada tartib bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Tartib ijodiy ish sifatiga unchalik ta'sir etmaydi. Chunki qachon yozish emas, qanday yozish muhimroq. Yozuvchi ofis sharoitida ishlamasligi mumkin, lekin xontaxta va ko'rpacha atrofida yozilgan asar a'lo darajada yozilish ehtimoli bor. Yozuvchi ertalab soat sakkizdan ish boshlamasligi mumkin, lekin kechki sakkizda boshlagan ishi risoladagiday bajarilishi ham mumkin. Ijod jarayonining qay mahalda, qay tartibda borishidan qat'iy nazar muhimi yozuvchi doim yozib turishi, ijodiy ishning bardavomligidadir.

Ijodkorni ruhiy-psixologik nuqtayi nazardan tekshirilganda, asosan o'z dunyosiga sho'ng'ishi, badiiy obrazlari mohiyatiga qarashlarini, estetik ideallarini joylashtirish holatlari kuzatiladi. Katta ijodkorlarning ruhiyati, kayfiyati, dunyoqarashiga xos jihatlarning barchasi ular yaratgan obrazlar tabiatida akslanadi. Badiiy asardan yozuvchi tabiatiga xos xususiyatlarni anglash, his etish ijodkor yashagan muhitni, ijtimoiy-ma'naviy dunyosini anglash orqali yuzaga keladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning shaxsiyatini, e'tiqodiy qarashlarini anglash bilan asarlarini parallel qo'yib qaralganda, ijod psixologiyasi nuqta nazaridan juda ko'p masalalar oydinlashadi. Chunki, alloma adibning Yusufbek hoji, Otabek, Anvar, Kumush, Ra'noga o'xshash qahramonlarida ma'naviy dunyosida in'ikos etgan tushunchalar qaysidir ma'noda Abdulla Qodiriy adabiy-estetik dunyosiga tegishli, albatta.

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Iste'dod masalasi adabiyotshunoslikda, xususan, ijod psixologiyasining muhim bir muammosi sifatida bugun maydonga qo'yilayotganining o'z sabablari bor.

Bugungi adabiy hayotda, gazeta va jurnallarda she'riy mashqlar, nasriy asarlar bosilib turibdi. Biroq ularning mualliflari, aniqsa, yosh qalam egalarining qaysi birlari fitratida iste'doddan nishona borligini aniqlash va ular chindan ham iste'dod egalari bo'lsa, ularga rag'bat berish, qo'llab- quvvatlash kerak bo'ladi. Shoir Abdulla Oripov yozadi:

Olti oykim she'r yozmayman yuragim zada,

Olti oykim do'stlarim ham pana panada,

Iste'dodim so'nganidan qilar karomat[1. Oripov A, 19]

She'rdan shoir ancha muddat davomida she'r yozmaganidan yuragi zada bo'lganini g'am bilan aytmoqda. Iste'dod egalari ijod bilan mashg'ul yashash dasturamalining bir qismiga aylantiradilar. Qalam tutmagan kun -ijodkor uchun motamli kundir. Tabiiyki, yangi she'r yozmaslik, ijodkorning hayot mexanizmini izdan chiqarib, yuragini zada qiladi. Abdulla Oripov o'zining iste'dodlilik darajasini ham yaxshi bilgan. Ijod ahliga iste'dod, degan noyob ne'mat Yaratguvchi tomonidan in'om qilinadi.

Odam o'zi xohlab iste'dodli bo'la olmaydi. Ammo inson zoti o'zidagi ijodkorlikni, tug'ma qobiliyatni, iste'dodni, nimalarga qodir ekanini o'zi ham anglashi mumkin. Iste'dodni tarbiyalashda uch narsaga jiddiy qaraladi: ijodkor yoshi, asar hajmi yoki janri, adabiy muhit masalasi. Ijodiy xarakter mavjud bo'lgani uchun ijodkorlar jamoasi ijodiy kishilar toifasini tashkil etadi. "Shoirlik aslida o'zgarar nazdidagi jo'n, oddiy narsalardan hayratlanish, ularda qandaydir sir ko'rish..."[2. Oripov, A. 25]. Abdulla Oripov o'zgarar kechirmagan kechinmani kechirish, o'zgarar bee'tibor qoldirgan narsalarni kuzatish, o'zgarar hayajonlanmagan obyektidan ta'sirlanish faqatgina ijodkorning ishi ekanini aytmoqda. Masalan, tabiat hamma uchun tashqari, ko'cha, daraxt, kun va tun hisoblanadi. Ijodkor uchun esa tabiat ilhom manbayidir.

Yosh va hajm masalasi nafaqat psixologik aspektida balki, pedagogika uchun ham muhim jihatdir. Bolaga topshiriq berishda, jazolashda, imtihonni tashkillashtirishda, dars jadvalini tuzishda bolaning yoshi va tadbirning hajmiga qaraladi. Har ikkala sohada intellektual salohiyatni rivojlantirish maqsad qilingani uchun ularga xos mushtarakliklarga e'tirbor beramiz. Masalan, qalam charxlab mashq qilib yurgan yosh yozuvchidan "O'tkan kunlar" bilan bellashadigan fundamental asar yozishini umid qilib bo'lmaydi. Yosh

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

qalamkashlarning mashqlarini tajribali yozuvchilarniki bilan solishtirib, ularni uquvsizlikda tanqid qilish ham noo'rin. Agar uslub yo mahorat bobida solishtirishga ehtiyoj tug'ilsa, mashhur yozuvchilarning 16 -18 yoshida qoralab qo'ygan ishlarini ko'zdan kechirish kerak. Shuningdek, uslubni o'rgatish uchun janrlarni saralab mutolaaga tavsiya qilish kerak.

Yozuvchilar uchun mutolaa, mashq qilish, ko'nikma va tajribalardan tashqari o'z ustida ishlashi ham muhim hisoblanadi. Ijodkorona tajriba o'qish va yozish bilan o'zlashtiriladi. Tajriba shakllanishi uchun vaqt kerak. Vaqt esa o'z- o'zidan ijodkorning yoshi masalasiga borib taqaladi. Shuning uchun ham yosh qalamkashlar tajribali yozuvchilarning asarlariga o'rganish ma'nosida ham murojaat qilishlari zarur.

Kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini to'ldiruvchi qadriyatlar tipi ham mavjudki, ular kishini estetik zavq va yorug'likka yetaklaydi. Erkin Vohidov she'r haqida so'z yuritarkan ekan, she'rni oliy qadriyat maqomiga olib chiquvchi xususiyatini ham aytib o'tadi. "She'riyat inson qalbining ko'z gusi va malhami, unga qanot beruvchi omil ekan, shoirning birinchi vazifasi kishilar ko'ngliga taskin va nur olib kirish, dardiga hamdard bo'lish, unga kuch va madad berishdir"[3.Vohidov. E. 107]. Agar she'riyat (kitoblari) Erkin Vohidov aytgan ma'naviy vazifani bajarmas ekan, uning insonga do'st, deb bilishimizning ahamiyati qolmaydi. Mavzuning tanlanish yo tanlanmasligi ham, abadiy tipga kirishi ham, ijodkor iste'dodining ahamiyati ham mana shunday sahifalarda bo'y ko'rsatadi.

Pedagogikaga qaysak, bolaning shaxs sifatida rivoj topib shakllanishi, dars mashg'ulotlarini a'lo darajada o'zlashtirishi uchun ular guruhlariga, aniqrog'i iqtidorli o'quvchilar alohida sinfga birlashtiriladi. Xuddi shu kabi qalamkashlar ham bir qanot ostida birlashadilar. Jamoa bo'lib ishlashda guruhdoshlaridan qaysidir ma'noda nimadir o'rganadi, masalan, she'r o'qishda tallaffuz qoidalari, ijodkor estetikasi kabilarni. Adabiyot tarixi bilan yuzlashsak, Xiva adabiy muhitida Ogahiy, Muhammad Rahimxon Feruz, Tabibiy, Avaz O'tar kabilarni, Qo'qon adabiy muhiti Muqimiy, Furqat, Muhyi, Amiriy, Fazliylarni, Toshkent adabiy muhitidan esa Avloniy, Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek kabi ijodkorlar yetishib chiqqan edi [4.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 344]. Adabiy muhit yaratish ham bir qarashda an'anaga aylanib ketganini ko'ramiz. Yaqin o'tmishimizda Abdurauf Fitratning "Chig'atoy gurungi" nomli adabiy to'garagi ham faoliyat olib borgan fikrimizga dalil bo'la oladi.

Iste'dod egalari har doim bu tushunchaga eng aniq yondashuvni yo'naltirib kelganlar. Iste'dodga iste'dod egalari gina to'g'ri ta'rif beradilar. Ijod

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

laboratoriyasi uchun iste'dod tushuncha doim birinchi o'rinda turadi. Iste'dod mavjud bo'lmasa, laboratoriyadagi barcha ishlar behuda bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. "Sharq" NMAK Bosh tahririyati. Toshkent, 2019 yil
2. Abdulla Oripov. Əhtiëj farzandi. "Ësh gvardiya" nashriëti, Toshkent. 1988 yil
3. Erkin Vohidov. Shoiru, she'ru, shuur. "Yosh gvardiya", T.: 1987 –yil
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1 jildi. Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2000 yil